

**BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA
KELTIRILGAN XALQ OG'ZAKI IJODI NAMUNALARIDA MA'NAVIY-
AXLOQNING TARBIYAVIY AHAMIYATI.**

Arobova Shohsanam Akram qizi

Andijon viloyati Andijon shahar

7-umum ta'lim maktabi amaliyotchi

psixologi.

Annostatsiya: *Ushbu ilmiy maqolada: Boshlang'ich sinf darsliklari ya'ni Ona tili va o'qish savodxonligida berilgan: xalq og'zaki ijodi na'munalari ma'naviy-axloqiy tarbiyaning ahamiyati haqida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *Tarbiya, manaviy-axloqiy, axloq, o'quvchi, bolalar, xalq og'zaki ijodi na'munalari, xalq og'zaki ijodi, Avloddan –avlodga, maqollar, topishmoqlar, ertak.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev Tarbiya haqidagi shunday oltinga teng fikrlarni aytgan: “ Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan”. Insoniyat faoliyatining asosiy turi sifatida tarbiyaning yuzaga kelishi mil.av. 40-35 ming yilliklarda zamonaviy qiyofadagi odamlar {«homo sapiens»- «ongli odam»)ning paydo bo'lishi bilan bog'liq.

Forobiy birinchi bo'lib ta'lim va tarbiyaga ta'rif bergan olimdir: Ta'lim - so'z va o'rganish bilangina amalga oshiriladi. Tarbiya - esa amaliyot, ish-tajriba bilan amalga oshiriladi.

- Ta'lim-tarbiya ikki yo'l bilan amalga oshiriladi: qanoatbaxsh, ilhomlantiruvchi so'zlar va majbur etish.

- Har kimki ilm, hikmatni desa, uni yoshligidan boshlasin, so'zining ustidan chiqsin, yomon ishlardan saqlanadigan bo'lsin, hiyonat, makr va hiylalardan uzoq bo'lsin, diyonatli bo'lsin, ilm va ahli ilmdan mol-dunyosini ayamasin.





- Inson yaxshi tarbiya ko'rmagan va turmushda yaxshi tajriba orttirmagan bo'lsa, u ko'p narsalarni nazarga ilmay va ulardan jirkanadi. Bunday narsalar unga noo'rin bo'lib ko'ringan narsalar zaruriy bo'lib chiqadi.

Ibn Sinoning fikricha insonlar xulq-atvorida binmuncha nuqsonlar bor. Bular: aldash, rashk, o'ch olish, adovat, bo'xton, irodasizlik kabilardir.

Jaloliddin Davoniyning axloqiy qarashlari. Davoniy insoniy fazilatlarni to'rtga bo'ladi: donolik, adolat, shijoat, iffat. Davoniy g'azabni eng og'ir ruhiy kasallik deydi. G'azab kishining katta nuqsoni, kamchiligi, aqlsizligidir, agar aql g'azab va hissiyotga bo'ysunsa, kishi hayvon darajasiga tushib qolishi mumkin, chunki hayvonning aqli bolmaganligi tufayli u g'azab va quvvatini o'ziga buysundira olmaydi. Inson aqli bo'la turib g'azabni buysundira olmasa, buni hech qachon kechirish mumkin emas.

Tarbiya o'zi nima? TARBIYA bu — shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga karatilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan chortadbirlar yigindisi. Tarbiya insonning insonligini ta'minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyatdir. Tarbiya siz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo'la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar Tarbiya tufayligina bir avloddan boshqasiga o'tadi. Tarbiya albatta oiladan boshlanadi. Biz ertalab uyg'onar ekanmiz darrov telefonimizni qidirishdan boshlaymiz. Uyimizda katta soat ilinib turadi, lekin telefondagi soatga qaraymiz. Farzandimiz yonimizga kelib keling oyi birga o'ynaymiz demaydi, telefoningizni berib turing o'yin o'ynayman deydi. Beramiz sababi ishlarimizni qilishimiz kerak, bolamiz o'sha telefon bilan ovunadi-bo'ldi. Kechga borib bolalarimiz uxlashga yotganda ham ertak o'qib bering demaydi, oyi yoki dada telefoningizni berib turing...

To'g'ri telefonimizga bolalarimiz uchun saviyasiga mos qiziqarli matematik o'yinlar, alifbo va boshqa o'yinlarni o'rnatib qo'ygan bo'lishimiz mumkin. Ammo bolalarimiz soatlab telefonda o'tirishini, u nur, bolamizning sog'ligiga zarar yetkazishini unitib qo'ymoqdamiz. Bundan 18-20- yil oldin, biz ham yosh bola bo'lganmiz, telefonlar hali uncha rivojlanib ketmagan, oddiy, faqat so'zlashish uchun edi. Biz bolalar bilan xalq og'zaki ijodi vositalari ya'ni ertaklar, maqollar, topishmoqlar, qo'shiqlarni eshitganmiz va aytganmiz. Milliy o'yinlarimizdan esa besh tosh, oq terekmi ko'k terak hokazo o'yinlarni o'ynaganmiz. Mana hozir ko'ryapmizki, bu xalq og'zaki ijodi na'munalari faqat kitobda qolmoqda. Amaliy usulda juda sust rivojlanyapti. Faqat milliy bayramlarimizda xalq og'zaki ijodi na'munalaridan ko'rsatilyapti xolos. To'g'ri, ilg'or kreativ O'qituvchi -pedagog dars





o'tganda ish rejasida xalq og'zaki ijodi na'munasi bo'lsa, o'quvchilarga tushuntirib, amaliy tarzda ko'rsatib, sahnalashtirib dars o'tishi mumkin. Lekin hamma o'qituvchi bunday emas, xalq og'zaki ijodi na'munasi dars mobaynida sahnashtirmasdan og'zaki tushuntirib o'tib ketadi. O'quvchilarni bazilari tushunib, bazilari esa tushinmay qolishlari mumkin. Shuning uchun biz har bir ota –ona, uyimizda bolalarimizga ertak, maqol, matal, qo'shiq va boshqalarni aytib berishimiz kerak. Hatto yo'qolib borayotgan milliy o'yinlarimizni ham uyda bolalarimiz bilan birga o'ynasak ularni mehri bizga ortadi, ko'chada do'stlariga o'yinni o'rgatadi. Shu tariqa xalq og'zaki ijodimiz tobora yuksaladi va yo'qolishini oldi olinadi. Hamda oilada o'zaro mehr-oqibat, ma'naviy-axloqiy tarbiya tamoyili ildiz otib kurtak yoyadi. Axloq (arabcha - xulq-atvor ma'nosini bildiradi) ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga soladigan qonun-qoidalar majmuidir. Axloq - shaxs yoki guruh faoliyatini baholash orqali jamiyatdagi munosabatlarni boshqarish mexanizmi. Axloq shunchaki munosabatlarni tartibga keltirish uchungina emas, balki ularni uyg'unlashtirish uchun ham zarur. Munosabatlarni boshqarish ikki xil usul bilan amalga oshiriladi: xulq-atvorni rag'batlantirish va jazolash. Axloq jamiyatdagi munosabatlarni tartibga soladi va ijtimoiy rivojlanish ehtiyojlari ifodalanadigan maqsadlarni ilgari suradi.

Axloq tushunchalari umumiy xarakterga ega, ular alohida munosabatlarni emas, hamma sohadagi munosabatlarni qamrab oladi. Bunday tushunchalar axloqiy kategoriya deb ataladi. Ezgulik, tartiblilik, haqqoniylik, rostgo'ylik, adolatlilik, mehnatsevarlik, jamoaviylik kabi sifat va xususiyatlar o'zida birlashtirgan shaxs tavsifi axloqiy tamoyillar deb ataladi. Hayotda qoida sifatida qabul qilingan talablardan kishilar o'zlariga odamlar orasidan namuna tanlaydi. Bu axloqiy ideal deb ataladi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya vazifalari:

- o'quvchilarda jamiyatga va Vatanga sadoqatni tarbiyalash;
- mehnatga axloqiy munosabatni tarbiyalash;
- atrofdagi kishilarga axloqiy munosabat;
- shaxsning o'ziga, xulqiga axloqiy munosabatni tarbiyalashdan iborat. ma'lum bir subyektlar uchungina ijobiy tavsifga ega bo'ladi.

Ma'naviyat va axloq o'z navbatida tarbiya jarayonini samarali tashkil etishni taqozo etadi. Ma'lumki, tarbiya yosh avlodni jamiyatda yashashga maqsadli tayyorlash jarayoni bo'lib, maxsus tashkil etilgan davlat va jamoat institutlari orqali amalga oshiriladi, jamiyat tomonidan nazorat qilinadi va tuzatishlar kiritib boriladi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning maqsad va vazifalari. Ma'naviy-axloqiy tarbiya - yagona ijtimoiy tarbiya jarayonining tarkibiy qismi. Jamiyat tomonidan insonlar





xulqining boshqarilishiga zarurat ikki o'zaro bog'liq vazifani shart qilib qo'yadi: birinchidan, jamiyat ongida me'yorlar, tamoyillar, ideallar, adolat, ezgulik va yovuzlik kabi tushunchalar ko'rnishida aks etadigan va asoslanadigan axloqiy talablarni ishlab chiqish; ikkinchidan, inson o'z xatti-harakatlarini yo'naltirishi va nazorat qila olishi, shuningdek ijtimoiy xulqni boshqarishda ishtirok eta olishi, ya'ni boshqa kishilarga talab qo'ya bilishi va ulaming xatti-harakatlarini baholay olishi uchun bu talablarni hamda ular bilan bog'liq tasavvurlarni har bir inson ongiga singdirish. Aynan shu ikkinchi vazifa insonda shaxsning tegishli e'tiqod, ma'naviy moyilliklar, his-tuyg'ular, odatlar, barqaror axloqiy sifatlarni shakllantirishdan iborat bo'lgan axloqiy tarbiya orqali hal qilinadi. U yoki bu jamiyatda ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonining mazmuni uning maqsadlari bilan belgilanadi. Bu maqsadlar ijtimoiy munosabatlar tavsifi bilan belgilanadi. O'quvchilarda ma'naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirish ularning ma'naviy dunyosini, ongini, axloqiy hislarini, shaxsiy sifatlari va xulqini tarbiyalash hamda rivojlantirishni taqozo etadi.

O'quvchilarni axloqiy tarbiyalashning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- 1) o'quvchilarda axloqiy his-tuyg'ular va xatti-harakatlarni tarbiyalash;
- 2) xulq madaniyati va ijobiy his-tuyg'ularni tarbiyalash;
- 3) axloqiy xulq-atvor ko'rmaklarini shakllantirish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalq og'zaki ijodi namunalari vositasini ongiga singdirar ekanmiz. Birinchi navbatda bolalarni fol'klorligini rivojlantirishimiz kerak. Aziz o'quvchilar kim ertak, topishmoq qo'shiq aytishni biladi. Ular kattalardan eshitgan ertak, qo'shiq, topishmoqni o'zini tilida aytib berishadi. Shu tariqa Bolalar folklori — og'zaki ijod namunalari shakllana boradi. Odatda bolalar uchun xalq og'zaki ijodi kattalar tomonidan yaratiladi. Avlodga — avlodga o'tib keladi. Uning muallifi aniq bo'lmaydi. O'zbek Bolalar folklori alla, ertak, ermaklar, tez aytish, topishmoq, bolalar o'yin qo'shiqlari, erkalama, masharalama va boshqalarni o'z ichiga oladi. Bolalar folklori bolaning tinglashiga, aytib yurishiga, o'yiniga, qo'shig'iga moslangan bo'ladi. O'zbekistonda Bolalar folklori namunalari to'plam holida 1932-yildan nashr etila boshladi. Kattalar tomonidan yaratiladigan alla, ovutmachok va erkalamalar onalar mehr muhabbati bilan yo'g'rilgan bo'lib, ularda go'dakning istiqboliga oid orzuumidlar, bola yashayotgan muhit o'z ifodasini topadi. Bolani belash, o'tqazish, atakchechak yurgizish, sakratish, o'ynatish va ovutishlarda "Toytoy", "Bordibordi" va boshqa ovutmachoklar aytiladi. Bolalar qo'shiqlarining ko'plari yil fasllari bilan bog'liq. "Boychechak", "Oftob chiqsi olamga", "Chittigul", "Laylak keldi, yoz bo'ldi", "Qurbaqa", "Qaldirg'och" kabi qo'shiqlarni bolalar tom boshida, dalalarda, qishloq ko'chalarida aytishadi. Ular bahor kelishi, yomg'ir yog'ishi, quyoshning olamni isitishi, ilk chechak, birinchi qor kabi fasl va tabiat





hodisalari bilan bog'liq. "Bu bog'chada olish", "Zuvzuv borag'on", "Chamandagul", "Oq sholi, ko'k sholi" va boshqa qo'shiklar turli davrda aytilaveradi. Ularda ovchilik, dehqonchilik, chorvachilik, hunar va san'at bilan bog'liq mehnat jarayonlari, kattalar xatti-harakatlariga taqlid aks etadi. O'yinlar ham, qo'shiqlar ham bolalarning akliy va jismoniy kamolatga yetishiga yordam beradi, ularda zavq uyg'otadi. O'yinlar Bolalar folklori ning murakkab turi bo'lib, ularda drama va musiqa unsurlari chatishib ketadi. O'yinlarni kichik yoshdagi bolalar "Choriy chamber", "Hakkalakam" kabi sanama o'yinidan, katta bolalar "Qushim boshi" degan topishmoqdan boshlaydi. Bolalar bog'chalari, maktablarda o'yinlardan keng foydalaniladi. Bolalar folklori yosh avlodni intizomli, jasur, qat'iyatli, qiyinchiliklarni yengishga, o'rtoqlariga yordam berishga tayyor bo'lish singari yaxshi sifatlarga ega bo'lib o'sishlariga yordam beradi. Uning ayrim namunalari maktab darsliklari va o'qish kitoblariga kiritilgan.

Masalan: Boshlang'ich sinf darsliklari: ona tili va o'qitish savodxonligi buning yaqqol natijasidir.

1 sinf ona tili va o'qish savodxonligi darsligida "audio ertak" "bo'ri va echki bolari" audio ertagi berilgan. Uning ma'naviy-tarbiyaviy ahamiyati shundan iboratki, doimo ota-onanglaringiz so'zilariga quloq soling, ular hech qachon bolalariga yomonlik ravo ko'rmaydilar degan ibratli g'oya yotadi.

Ona tili va o'qish savodxonligi 1-sinf darsligi 1-qismida berilgan topishmoqlar asosan hayvonlar, hashoratlar, narsa-buyum, insonning ta'na azolari haqida berilgan.

Topishmoqlar o'quvchilar yosh psixologik xususiyatlariga mos holda tuziladi. Topishmoqlarning javobini to'g'ri topish uchun misralarning yashiringan ma'noni topish kerak bo'ladi. Topishmoqlar tarbiyaviy ahamiyati shundan iboratki: o'quvchilarni hozir javoblikka, topqirlikka zukkolikka o'ylanishga va izlanishga o'rgatadi.

Hozirgi davrda biz insonlar vaqtni qadriga yetmayapmizmi? ko'proq telefonga bog'lanib kunimiz o'tib ketmayaptidimi?, Bolalar ham telefondagi o'yinga bog'lanib qolganmi?. Har bir kunimiz g'animatligi bu kunimiz ertaga qaytmasligi, bolalik davridan boshlab vaqtni qadriga yetish kerakligi, umr ham oqar daryo ekanligi haqida. Boshlang'ich 2 sinf ona tili va o'qish darsligida ibratli zamonaviy ertak "Donishmand soat" ertagi berilgan:

"Uy devorida qizchani bobosidan qolgan eski soat osiliq turardi. Bir kuni o'sha soat urmay qo'yibdi.

-Endi vaqtni qadrini qanday bilaman?-debdi qizcha soat oldiga kelib.

Kutilmaganda soat:

-Hammasiga o'zing aybdorsan,-deya javob qaytaribdi qizchaga.



-iye, sen hali gapirishni ham bilasanmi?

-Men hamisha gapirganman. Faqat sen eshitishni istamagansan.

-Eh,vaqtzni to'g'ri ko'rsatmasang, maktabga kech qolishim mumkin-ku?

-xuddi doim vaqtida boradigandek gapirasana,-kulibdi soat. –Qachon qarama, kechikib yurasan. Sen vaqtzni umuman qadrlamaysan, bilding! Ko'rib turibmizki, ertakni mazmun mohiyatini ichida qancha ibratli ma'no yotibdi.

Demak, "Donishmand soatni" 2-qismiga e'tibor bersak, "–O'zing bilan birorta qiziq kitob ol, bekor o'tirganingda o'qiysan. O'qish-eng foydali mashg'ulot!

-Soatvoy, shuncha narsani qayerdan bilasan?

-Men juda eski soatman. Qiladigan ishim odamlarga vaqtzni ko'rsatish. Millarim pichirlab umr oqar daryodek tez o'tib ketishini eslatib turadi. Uzoq vaqtdan buyon odamlarni kuzataman. Kimdir vaqtzni qadrlaydi, kimdir esa-yo'q. Vaqtzni qadrlab, foydali ish qilgan kishilar ko'p yaxshilikka ulgurganlarni ko'rdim. Umrini keraksiz o'yin-kulgiga sarflaganlar afsus qilib qolganini ko'rdim. Biroq hamma ham buni o'z vaqtida tushunib yetmaydi."

Ushbu ertakda O'quvchilarni vaqtzni qadriga yetishga, behuda sarflamaslik, har bir vaqtzni ezgulik va unumli ishlarga, agar bo'sh qolsa kitob o'qishlikka chunki daqiqani oltinga tengligi aytib o'tilmoqda. Vaqtini behuda o'yin kulgiga sarflagan insonlarni keyinchalik yomon oqibatlariga olib kelishi, afsuslanishi, unda kech bo'lishini aytib o'tmoqda. Ko'rib turibmizki hozirgi ba'zi yoshlarimiz vaqtini behuda sarflab yomon illat narokotik moddalar, har hil psixotrob dorilarni iste'mol qilib o'z umriga zomin bo'lmoqda. Bu yo'l noto'g'ri ekanligini tushunganda esa afsuski kech bo'lmoqda. Uning tarbiyaviy ahamiyati shundan iboratki, boshlang'ich sinfligidanoq aniq maqsad qo'yib, unga yetishish uchun albatta kitob o'qib vaqtzni har bir soniyasini ham qadrlab, o'zidan yaxshi nom qoldirishini aytib o'tmoqda. Chunki bugungi kunimiz ertaga qaytarilmaydi...

Maqollar : 2 sinf ona tili va o'qish savodxonligida maqollar berilgan. Ushbu maqollar tarbiyaviy ahamiyati: o'quvchilarni ahillikka, hamjihatlikka, vatanga muhabbat sadoqat va vatanni qadriga yetishga, yaxshilik qilishga, ilm olishga, sahovatli bo'lishga, rostgo'ylikka va ayyor insonlardan uzoqroq yurishga o'rgatadi. Maqollar so'zni ko'rki hisoblanadi. Chunki nutq so'zlaganimizda ham oddiy so'zlashish uslubida ham hamisha maqol qo'shib gapiramiz. 2 sinf ona tili va o'qish savodxonligi darsligidagi maqollar ko'rib chiqamiz:

1. kuch birlikda. maqolni ma'nosi ahillik, birdamlik degandir
2. Vatanga falokat-o'zingga halokat.
3. Suvni bersang elga,- Yosharasan ming yilga.
4. Bulbulga bog' yaxshi- Kakklikka tog'.



5. O'zga yurtda shoh bo'lguncha- o'z yurtida gado bo'l.

6. Ilmsiz bir yashar-ilmi ming yashar.

7. Ilmi uy-charog'on.

Ilmsiz uy-zimiston.

8. Bilagi zo'r bir yiqar.

Bilimi zo'r-mingni.

9. Harakatda-barokat.

10. O'zga yurtda shoh bo'lguncha.

O'z yurtida gado bo'l.

11. Arslon izidan qaytmas, Yigit-so'zidan.

12. Tulkining hiylasi ko'p, yaxshisi-qochmoq.

13. Bo'ringa o'zi to'ymasa ham ko'zi to'ymas.

14. Echki yugurib kiyik bo'lolmas.

Maqollar bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiya tizimida his-tuyg'ular go'zal namoyon etish uchun uning fikrlash doirasi o'zgacha ta'sir ko'rsatadi. Bobo va buvilari bilan yashaydigan va ular bilan birga yurgan bolalar gaplariga ko'proq maqol qo'shib gapiradilar. Sababi ular doimo kattalar davrasida ko'p yurgan. Chunki bobo va buvilarimiz so'zlariga maqol qo'shib gapirishga odatlanishgan. Ular bo'layotgan voqea-hodisalarga, jamiyatimiz kishilarga, yoshlarga hatto o'z xulqiga nisbatan his-tuyg'ularni ifoda etganda ham maqol qo'shib gapiradilar.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida uyushtiriluvchi tadbirlar xulq-odoba doir xatti-harakatlar zanjiridan iborat bo'ladi. Ma'naviy-axloqiy xatti-harakatlar esa o'quvchi tomonidan axloqiy me'yor va tamoyillar mohiyatini o'rganish, ularni anglab yetishdan iboratdir.

Inson nima uchun hammadan kuchli? (O'zbek xalq ertagi).

Ona tili va o'qish savodxonligi 3 sinf darsligidan.

"Kunlardan bir kuni qirg'ovul soy bo'yiga suv ichish maqsadida kelibdi. Suv muzlab qolgan ekan, uni tumshug'i bilan teshib, ozroq suv ichibdi. Biroq shu ozgina vaqt ichida qanoti muzga yopishib qolibdi.

-Ey muz, juda kuchli ekan-ku!-xitob qilibdi qirg'ovul.

-Yo'g'-e,- javob beribdi muz,-mendan yomg'ir kuchli. Qachon yomg'ir yog'sa, men shu zahoti eriy boshlayman.

Bu suhbatni ko'kdagi bulutlar bag'rida eshitib turgan yomg'ir ham tiliga kiribdi:

-Nahotki, men kuchli bo'lsam? Yo'q, yer ancha kuchli. Qancha ko'p yog'may, u meni o'ziga shimib oladi, -debdi.

Shunda yer tilga kirib:



-O'rmon mendan kuchli. U mening ustimda turadi, tomirlarini suqib vujudimdagi bor quvvatni so'rib oladi,- debdi.

-yo'q, mening kuchim uncha ko'p emas,- debdi o'rmon. – Olov mendan kuchli. U alanga olsa bormi, ho'l-quruq baravar yonadi!

Bu so'zlarni eshitgan olov shunday debdi.

-Men shamoldan qo'rqaman. U meni osongina o'chirish mumkin.

-To'g'ri, men daraxtni ildizi bilan qo'porishim,alangani bir zumda o'chirishim mumkin, - debdi shamol. – Lekin bir oddiy maysaning oldida ojizman. Qanchalar kuchli esmay, u qaddini tiklab olaveradi. Menimcha, maysa hammadan kuchli!

Bunga maysa e'tiroz bildiribdi:

- Menda hech qanday kuch yo'q. Qo'y meni yeb qo'yadi-ku! Shuning uchun ham qo'y hammadan kuchli bo'lsa kerak.

Buni eshitgan qo'y bosh chayqabdi:

- Menda qanday kuch bo'lsin? Bo'ri kelib qolsa bormi, dunbamdan ayrildim deyavering! Yaxshilab ko'ring! Hammadan kuchli o'sha emasmikan?-debdi.

Birdaniga bo'ri paydo bo'lib qolibdi.

-E, sizlar hech narsani bilmaysizlar,-debdi-u. – Dunyoda inson hammadan kuchli! U qirg'ovulni ham tutadi, muzni ham eritadi, Yomg'irga ham bo'sh kelmaydi, yerni chopadi, o'rmon kesadi,olovni o'chiradi, shamolni o'ziga bo'ysindiradi, maysa-o'tlarni o'radi, qo'yni so'yadi, biz bo'rilarini otib o'ldiradi.

Bularning barini eshitgan inson debdi:

- Yo'q, adashasiz, aslida birimiz ikkinchimizdan kuchli emasmiz. Men sizlardan kuchli bo'lishim mumkin. Lekin ko'magingizga doim muhtojman. Siz qiladidigan ishlarni men bajara olmayman. Birontangiz bo'lmasangiz men o'z kuchimni yo'qotaman. Demak, tabiatdagi hamma narsa bir-biriga zanjirdek bog'langan. Biz faqat birlashsakkina, kuchli bo'la olamiz.

Ushbu ertakda ham birlashish ahillik do'stlik haqida gap ketmoqada. Tarbiyaviy ahamiyati shundan iboratki, inson bir o'zi hech narsa erisholmaydi albatta yon-atrofdagi yor-u-do'stlari ko'magida yetuklikka va komillikka hamda maqsadlariga yetishishi yoritilgan. Bunda albatta axloqiy me'yorlar yotadi. Ahloqiy me'yorlar har bir inson va jamiyat uyg'unlikda mavjud bo'la olishiga intilgan kishilik jamiyatining ko'p asrlik tajribasi natijasidir.Insoniyat hamisha eng muhim maqsadlardan biri sifatida kishilarning hamkorlikdagi yashashida uyg'unlikka intilib kelgan. Axloq me'yorlari insonning yaxshilik va yomonlikni chegaralash, ezgulik nima ekanini aniqlashga intilishlari natijasida yuzaga kelgan. Axloq me'yor va qadriyatlardan iborat. Axloqning uchinchi element! ideallami esa, shaxs o'zida tarkib toptirishni xohlagan me'yor va sifatlar tarzida ajratib ko'rsatish mumkin. Me'yor - bir





turdagi xulq-atvor, takrorlanadigan vaziyat, talab, standart, taqlid uchun misol, ijtimoiy fikr, did, qoida, urf-odat shaklidagi namuna. Me'yorlar ajdodlarning katta ijobiy ahamiyatga ega tajribasini o'zida mujassamlaydi, zero ularda u yoki bu xulq-atvorining ko'plab avlodlar tajribasida sinalgan maqsadga muvofiqligi aks etadi.

Ma'naviy-axloqiy mavzudagi suhbatlar orqali tarbiyalanuvchilar axloq me'yorlari va qoidalarini, ijobiy xulq shakllarini egallabgina qolmay, shu bilan bir qatorda ularda axloq qoidalari va me'yorlariga nisbatan talab yuzaga keladi. Suhbat jarayonida tarbiyalanuvchilarning axloqiy tajribalarini kengaytirib borish, xulqning axloqiy sabablarini aniqlab berish kerak. Suhbat vaqtida tarbiyalanuvchilar o'z fikrlarini erkin aytishlariga keng imkon berish lozim. Shunda ular har bir xatti-harakatlarini ongli ravishda, axloq me'yorlari va qoidalari asosida bajarishga urinadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ona tili o'qitish metodikasi. Karima Qosimova, Safo Matchonov, Xolida G'ulomova, Sharofat Yo'ldosheva, Sharoljon Sariyev. Toshkent-2009.

2. Umumiy pedagogika. N.Atayeva, F.Rasulova. M.Salayeva. S. Hasanov. Toshkent-2012.

3. Ona tili va o'qish savodxonligi 1 darslik 1-2 qism . Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sadullo Quronov, Shokir Tursun. Toshkent- 2021.

4. Ona tili va o'qish savodxonligi 2-sinf darslik 1-2- qism. Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa'dullo Quronov, Shokir Tursun Toshkent-2021.

5. Ona tili va o'qish savodxonligi 3-sinf darslik 1-2-qism. Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa'dullo Quronov, Shokir Tursun, Zeboxon Ro'zmetova. Toshkent-2022.

6. O'zbek xalq og'zaki ijodi. Oxunjon Safarov. Toshkent-2009.

